

SO‘FI OLLOYOR VA ALISHER NAVOIY IZDOSHI UBAYDULLA
ALAMKASH

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JURNALISTIKA VA O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK
TA‘LIM YO‘NALISHI MAGISTR 2- KURS TALABASI

Sanaqulboyev Inombek

Annotatsiya: Maqolada Ubaydulla Islom so‘fi o‘g‘li Alamkash haqida ma‘lumotlar berilgan. Tassavuf namoyondalari So‘fi Olloyor va Alisher Navoiyga ergashgan izdosh shoir Alamkash ijodida ularning ta‘siri yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: adabiyot, shaxs, shoir, tassavuf, Navoiy, So‘fi Olloyor, Alamkash, she‘r, muxammas, g‘azal, adabiy muhit, Yangiqo‘rg‘on, bayoz, maktub, Rashid Zohid, .

Аннотация: В статье представлена информация об Убайдулле Исламе Суфи сыне Аламкаше. Влияние суфийских мыслителей Суфи Оллойра и Алишера Навои прослеживается в творчестве поэта-последователя Аламкаша.

Ключевые слова: литература, личность, поэт, tassavuf, Навои, Суфи Оллойр, аламкаш, поэзия, мухаммас, Газель, литературная среда, янгикурбан, баяз, письмо, Рашид Захид.

ОЛЛОЯРА И АЛИШЕРА НАВОИ ПРОСЛЕЖИВАЕТСЯ В ТВОРЧЕСТВЕ
ПОЭТА-

Annotation: The article provides information about Ubaidullah Islam Sufi son of Alamkash. The influence of Sufi thinkers Sufi Oloyar and Alisher Navoi can be traced in the works of the poet-follower Alamkash.

Key words: literature, personality, poet, tassawuf, Navoi, Sufi Oloyar, alamkash, poetry, Muhammad, Ghazal, literary environment, yangikurgan, bayaz, writing, Rashid Zahid.

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr birinchi yarmida Buxoro amrligi , xususan, Jizzax vohasida juda ko‘plab shoir va yozuvchilar ijod etgan. Shular orasida Ubaydulla Islom so‘fi o‘g‘li Alamkash alohida e‘tiborga molik shoirlarimizdan biri hisoblanadi. Alamkash tassavufiy yo‘nalishda ijod etgan So‘fi Olloyor va Alisher Navoiy kabi ulug‘ shoirlarimiz yo‘lidan ketib ijod etgan shoir hisoblanadi.

Inson qalbining quvonch-u qayg‘usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi.

(O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov)¹

"Agar buyuk bobolarimizning ruhini shod qilib, jadid bobolarimiz qilgan ishlarning davomchilari bo‘lib, bugungi g‘oyamizni – Yangi O‘zbekistonning ostonasi maktabdan

¹ <https://m.ok.ru>

boshlanadi degan ulug‘ harakatni amalga oshirishda belimizni mahkam bog‘lab harakat qilsak, albatta natija bo‘ladi.

Nega desangiz, bu – bobolarimizning umidlari, niyatlari. Bobolarimizning armonlarini amalga oshirish bizga ham qarz, ham farz. Agar intilsak, astoydil harakat qilsak – har qanday baland marralarni egallash albatta qo‘limizdan keladi, men bunga ishonaman!" — Shavkat Mirziyoyev

□ "Menimcha" ko‘rsatuvidan²

S.Olloyorning asarlarida shunday qarashlar borki, ta‘lim deganda bilim va ko‘nikmalarni

shakllantirishni nazarda tutgan va uni jismoniy kuchlar hamda aqliy qobiliyatlar rivoji va tartib intizom shakllanishini o‘z ichiga oladigan tabiiy tarbiyaga taalluqli deb hisoblagan.

Maorif esa odob-axloqni shakllantirishga oid bo‘lib, maktab ta‘limi yoki o‘qitish (mahorat hosil

kilish) va pragmatik tarbiya (aqlfarosatlikka erishish)dan farqli o‘larok, amaliy tarbiyaga

taalluqlidir. Mana shu joyda alohida ta‘kidlash lozimki amaliy tarbiya (amaliy axloq) masalasi

sharqda ham bir qator mutafakkirlar tomonidan ham muammo sifatida ko‘tarilgan.

SO‘FI OLLOYOR ASARLARIDA PEDAGOGIK QARASHLARNING QIYOSIY TAHLILI

Kotibov Rustamxon Bositxon o‘g‘li³

Ubaydulla Alamkash devonidan ishqiy, ishqiy – falsafiy, tanqidiy rukdagi she‘rlar bilan bir qatorda axloqiy – tarbiyaviy she‘rlar ham katta o‘rin tutadi. Bu narsa tabiiydir. Chunki bunday ruhdagi she‘rlar, murakkab mavzudagi she‘rlar kabi, jamiyatda har bir yangi avlod kelishi bilan qaytadan ahamiyat kasb etaveradi. Jamiyat taraqqiyoti tarixi izma – iz kelib turuvchi avlodlar tarixidan iboratdir. Insof barcha ezguliklar kalitidir. U – komil inson uchun birinchi fazilat: Alamkashning tasviricha, dil musaffoligi uchun ham insof zarur ekan. Buning aksi o‘laroq, mol –davlatga ortiqcha hirs qo‘yish kabi salbiy xususiyatning tug‘ilishiga ham insofsizlik sabab bo‘lar ekan.

Rashid Zohidning Tarixiy manbalarda So‘fi Olloyorning tarjimai holida quyidagi ma‘lumotlarni keltirib o‘tadi:

Inayatulloh Suvonqulov So‘fi Olloyorning tug‘ilgan yilini aniqlashtirish masalasida tadqiqotlarda turlicha taxmin qilgan va Ubaydulla Islom so‘fi o‘g‘li Alamkash keltirgan tarixiga ko‘ra, So‘fi Olloyorning vafoti 1721-yilda , tug‘ilgan yili esa 1644-yil, u milodiy hisobda 77 yil , hijriyda esa 79-80 yil umr ko‘rgan deydi. Bundan ko‘rinib turibdiki Ubaydulla Alamkash So‘fi Olloyor hayoti va ijodi bilan yaxshi tanish bo‘lgan hamda mukammal o‘qib o‘ganganligidan dalolat beradi.⁴

² <https://daryo.uz>

³ Namangan davlat universiteti erkin tadqiqotchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8068169>

⁴ <https://ziyo.uz/ilm-va-fan/adabiyot/rashid-zohid-tarixiy-manbalarda-so'fi-olloyor-tarjimai-holi>, 3-4-betlar

Ubaydulla Alamkash faylasuf shoir So‘fi Olloyorning 18 ta g‘azaliga muxammas bog‘lab, shoirning purmazmun baytlarini rivojlantirgan. Bu bilan u

Yangiqo‘rg‘on adabiy harakatida So‘fi Olloyor ijodining ta’sir doirasini kengaytirgan. O‘zining ham Sa’dulla Xitoyi, Mansur Sa’dullo o‘g‘li Dilafgor kabi qalamkashlar qatorida mashhur So‘fi Olloyorning munosib shogirdi ekanligini isbot etgan. So‘fi Olloyorning Alamkash tomonidan beshlantirilgan g‘azallari falsafiy – so‘fiyona g‘azallar bo‘lib, ularda tasavvuf axloqi talqin etilgan. Ularni taxmis etgan Alamkash ham shu axloqni tashviq etgandir:

Yetmadi asl kamola o‘z – o‘zidin hech shay,
O‘lmas urmayin boshini riyozat doshina paydar-pay,
Kirmayin ranju sabab, ko‘rki, uzum bo‘ladi may,
Boshini dosha urub, dona elakdan o‘tmay,
Musht yetmay, et ichinda solmasalar non o‘lmaz.

Bu bandlardagi kamtar bo‘lish, ilm – hunar orttirish yo‘lida zahmat chekishdan qochmaslik, hoy-u havasga ortiqcha berilmaslik, mol – davlatni hayotning mohiyati deb tushunmaslik kabi o‘gitlar hamma davrlar uchun ham zarurdir.

Ubaydulla Alamkash XVII-XVIII asrlardagi, xususan, turkiston o‘lkasida san’at va adabiyot rivojiga ulkan va beqiyos hissa qo‘shgan alloma va shoir, mutasavvuf olim So‘fi Olloyor ijodining muxlisi, o‘quvchisi hamda davomchisi hisoblanadi. Ubaydullo Alamkash uning ijodini mukammal tarzda o‘rganib, tom ma’noda davom ettirgan shoir hisoblanadi. Ubaydulla Alamkash So‘fi Olloyor izdoshi hamda davomchisi sifatida o‘z she’rlarida falsafiy-so‘fiyona, hayotiy real ishq-muhabbatni tarannum etuvchi she’rlar ko‘pchilikni tashkil etadi.

Masalan, mana bu g‘azaliga e’tibor bersak:
Bo‘yla xushbo‘ylikka sen yo ohu-yu totorsen,
Yo gulob-u atirsen, yo ud, yo gulzorsan,
Dilrabolar ichra bo‘lding nozuk yorsen,
Yo pari, yo lola, yo gulshansen.

Bu baytlar va misralrda yorga (Allohga) ishora sifatida tassbeh san’atidan foydalanib yorni tasvirlaydi. Yorning go‘zalligi, uning xushbo‘yligi, undan taralayotgan muattar hidlarni ohu, gulob, atir, gulzordan taraladigan xushbo‘y iforlar, dilrabolar ichra qanadayin nozukligi, yorning pariya, lolaga, gulshanga tashbahi yorqin misollar bilan ta’riflangan. Alamkash she’rlarida so‘fiyona ruh hamda tasavvufiy axloq g‘oyalari talqin etiladi.

So‘fiy Ollohyorning yurak qoni bilan bitilgan ikkinchi bir maktub-masnaviysi ham bo‘lib, unda og‘asi bilan xayrlashishni, ayriliqni iztirob ila izhor etadi: Mane sargashta tushtim yo‘lga nochor,

Emukdoshim, Xudo bo‘lsin senga yor.

Biz foydalangan «Bayozi Ubaydulla Alamkash»⁵ da So‘fiy Ollohyorning og‘asi Farhod otaliqqa bitgan bir maktub - muxammasi bo‘lib, u taxminan, Buxoro amiri

⁵ «Bayozi Ubaydulla Alamkash». I. Suvonqulov shaxsiy kutubxonasi saqlaguvchi

Abulfayzxon tomonidan Farhod otaliqqa nisbatan qilingan jafolarning dastlabki kunlarida yozilgan bo'lsa kerak. Chunki muxammas muallifi og'asiga: «Nechuk tushting alarning orasiga», deb murojaat qiladi. Maktub-muxammasda shoir og'asiga yordam berishdan o'zligini bayon etib, o'z holi va kayfiyati haqida esa quyidagi misralarni bitadi:

Kelibman zor aylab Qarshi-yu, Koson,
Tutubman do'st poyi haqshunoson.
Umidlik bandadurman ham xaroson,
Xudo qilg'ay o'zi mushkulni oson,
Tarahhum aylagay bechorasiga.

Yuqoridagi misralar Farhod otaliq boshiga tushgan kulfat So'fiy Ollohyorning ham hushyor tortishiga, ona maskanini tark etishiga sabab bo'lmadimikin, degan xayollarga olib keladi. So'fiy Ollohyor ijodini chuqur o'rganish shoir ijodining ruhiy va badiiy - estetik jihatini baholashda muhim ahamiyatga ega. Bu esa, o'z navbatida, So'fiy Ollohyor yashagan davrning ijtimoiy - siyosiy holati, shoir tarjimai holining yangi qirralarini o'rganish, qolaversa, shoir shaxsi xususida yurgan turli bo'xtonlarning asossiz ekanligini ochib berish imkoniyatini

tug'diradi.⁶

Shoir Ubaydulla Aalmkash So'fi Olloyor she'rlariga muxammas boylab, uning ijodini davom ettirish bilan birgalikda O'zbek Adabiyotining zabardast vakili, asoschisi, g'azal mulking sultoni bo'lmish buyuk va muhtaram, e'zozli hamda ardoqli shoir va davlat aarbobni Alisher Navoiyning ham izdoshi hisoblanadi.

Hech bir shoir(a) yoki yozuvchi yo'qki u Alisher Navoiy bobomiz ijodi, she'riyatidan bahramand bo'lib, o'quvchisi, ixlosmandi bo'lmasa. Navoiy ijodidan ta'sirlanib she'r bitmasa. Ulug' bobokalonimiz Alisher Navoiyning shogirti hamda izdoshlaridan biri Ubaydulloh Alamkash hisoblanadi. O'z she'rlarida Navoiy an'analrini davom ettirib, turli janrlarda qalam tebratadi.

Jizzax adabiy harakatida yetakchi o'rin tutgan Ubaydulla Islomqul o'g'li Alamkash ham Navoiy izidan borgan, uning g'azallarida olg'a surilgan g'oya va fikrlardan ijodiy foydalangan va ularni rivojlantirgan, bir so'z bilan aytganda undan ruhiy madad olgan. Masalan Alisher Navoiyning:
Xonaqahda xalqai zikr ichra g'avg'o qildi shayx,
Ahli dillar naqdi avqotini yag'mo qildi shayx...
Bovujudi masxu nodonlig' murid aylar uchun,
Ko'p o'zidin masxu nodonrog'ni paydo qildi shayx

qo'lyozma. 774 sahifa.

⁶ Mohigul Boboeva. So'fiy Ollohyorning ma'naviy

qarashlari. Risola. Jizzax: «Sangzor» nashriyoti. 2010 yil, 82 bet. 11-bet.

O'zbek adabiyotining yirik namoyandasi, tariqat ilmining bilimdoni.

– gʻazaliga Alamkashning:

Demangiz silki mashohiylarni barpo qildi shayx,
Bas alarga oʻt qoʻyib, olamni rasvo qildi shayx...
Domi tazvirin yoyibdur, koʻngli el saydigʻa band,
Bas ajab makr-u riyolarni muhayyo qildi shayx.⁷

Bu gʻazal Alisher Navoiyning <<shayx>>radifli gʻazaliga monand ravishda yozilgan boʻlib, bunda soxta shayxlar va ularning kirdikorlari sheʼriy yoʻl bilan ochib berolgan hisblanadi. Ubaydulla Alamkash ham Navoiydan taʼsirlanib, unga ergashib oʻzining “shayx” radifli gʻazalini bitadi. Ikkala gʻazalda ham Islom dini peshvosi boʻlgan, diniy qonun-qoidalarini yaxshi anglab yetmagan, oʻz manfati uchun dindan ham Allohdan ham qoʻrqmaydigan “shayx”lar haqida ularning bilimsizligi, nodonligi haqida soʻz boradi.

Alamkashning hayotdagi shiori dil ogʻritmaslik, birovlar-
ning diliga ozor yetkazmaslik, bechoralarning koʻngliga dal-
da boʻlishdir. Oʻzidan oldin yashagan ulugʻ shoirlar, jumladan,

Navoiyning fikrlarini davom ettirib yozadi:
Qoʻlingdin kelsa, boʻl dil kaʼbasin girdida sargardon,
Na hojat dil binosidin kechib qolmoq tavofi haj.

Demak, uningcha, xaj qilish oʻrniga birovning dil binosi-
ni tiklash, dil Kaʼbasini tavof aylash, odamlarning koʻngli-
ni shod etish kerak.

Shoir, ayniqsa, hayotda dono odamlar bilan suxbatdosh boʻ-
lish, ulardan oʻrganish, nodon odamlardan qochish haqida koʻp
taʼkidlaydi:

Har nechuk langu lavandlarni oʻzungga qilma yor,
Doʻstlik shartini qilgʻil aqli borlardin talab.
Har muhiming boʻlsa gar, nodongʻa izhor aylama,
Gavhari sirringni har dam ayla donodin talab.

Shoirning fikricha, har qanday muxim ish yuz berganida
bunday ishni faqat dono va bilimdon odamgina hal qila ola-
di, misni tillodan ajratish har kimga ham nasib etavermay-
di, bu ishni aqlli va bilimdon kishi tushunadi:

Misni tillodin ayirmoq loyiqi har odame
Boʻlmadi, bul ishni ayla chashmi binodin talab.

Shoir umrning har nafasi aziz ekani va uni bexuda oʻtkaz-
maslikni yoshlarga nasixat sifatida aytadi. Garchi hayotda koʻp
ishlar qilgani, oʻzidan gʻazallar devoni qoldirganiga qara-
may, umrini bexuda oʻtkazganini afsus bilan tilga oladi. Bu
gʻazali garchi uzi haqida boʻlsa ham, aslida, yoshlarga murojaat
sifatida yozilgan. Chunonchi, yozadi:

⁷ Turopova.P.Sh. Jizzax Adabiy Muhitining Taraqqiyot
Tamoyillari:Filologiya Fanlari Boʻyicha Falsafa
Doktori (PHD) Dissertatsiyasi - Jizzax.,2021. - 132B.40-bet.

Naqd avqotimni o'tkardim parishonlig'da, hayf,
Qarig'on chog'imda qoldim ko'b pushaymonlig'da, hayf.
O'tkarib laxvu-u la'ab birlan yigitlik davrini,
Emdi qoldim zor-u giryon birla hayronlig'da, hayf.

Shoirning ta'kidlashicha, har bir yigit umri davomida
olimlarni izlashi, donolardan o'rganishi kerak, shunda qari-
ganida ko'nglida afsus bo'lmaydi:
Donish ahlin izlab olmay doinishidin bahrae,
O'tkaribman naqd avqotimni nodonlig'da, hayf.

Yuqorida keltirib o'tgan bayt va misralarda ko'rinib turibdiki Ubaydulla Alamkash Alisher Navoiy kabi yoshlikni, yigitlik davrini behuda o'tkazmaslikka chorlaydi. Yigitlik chog'ida ilm-ma'rifat, hunar o'rganishga, donolar bilan ko'proq suhbat qurib, ulardan foydali maslahatlar hamda o'gitlarni olib, komillik sari intilishga undaydi. Kuchg'ayratning borida ilm egallab, biron bir kasb-korni egallasa qariganda afsus-nadomat chekmasligini o'z she'rlarida bayon etib ketgan. Bu o'gitlar oldingi va keying avlodga birdek asqotadi. Yillar, asrlar o'tsahamki o'z o'rni va mohiyatini yo'qotmaydi. Hamma davrlarda birdek tushunarli bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'sak, Ubaydulla Islom so'fi o'g'li Alamkash ajdodlar merosining davomchisi sifatida qalam tebratgan ma'rifatparvarvar shoir bo'lib, Alisher Navoiy va So'fi Olloyor kabi navqiron, yuksak, zabardast allomalarimizning davomchisi va shogirtyi sifatida ularning an'analarini davom ettirib ishq-muhabbat, islomiy odob-axloq, so'fiyona ruh, insonparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyalari ilgari surib, ijod etgan O'rta Zarafshon ya'ni G'allaorolik so'fiy shoiridir. Shooir she'rlarida Navoiy va So'fi Olloyor ruhi yaqqol sezilib, ularning g'oayalri tarannumi kishini o'ziga rom etib, maftun etadi. Ubaydulla Alamkashni chinakam shoir, xalq kuychisi sifatida fanimiz va adabiyotimizda o'z o'rni, izini qoldirib ketgan. Ijodkor ilmiy me'rosini o'rganar ekanmiz naqadar purma'no, sermazmun va teran fikrlar hamda g'oyalarning go'zal she'riy na'munalarda uchratamiz, bundan bahra olamiz. Ubaydulla Alamkash an'anala va qadriyatlar asosida noyob va durdona asarlar yaratgan xalq kuychisi va maorif namoyondasi sifatida adabiyotimizning ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Muallif she'rlarini mutolaa qilib, bunga amin bo'lmasdan, hayron qolmasdan, mamftun bo'lmasdan o'zimizni tiyib tura olmaymiz. Bir so'z bilan aytsak Ubaydulla Alamkash xalq va millat ma'rifdatparvari hamda jonkuyar kuychisidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «Bayozi Ubaydulla Alamkash». I. Suvonqulov shaxsiy kutubxonasi saqlaguvchi qo'lyozma. 774B.
2. Mohigul Boboeva. So'fiy Ollohyorning ma'naviy qarashlari. Risola. Jizzax: «Sangzor» nashriyoti. 2010 yil, 82B.
3. Rashid Zohid. Rarixiy manbalarda So'fi Olloyor tarjimayi holi. Ziyo.uz saytidan, 9B.

10-Fevral, 2026-yil

4. Kotibov Rustamxon Bositxon o'g'li. So'fi Olloyor asarlarida pedagogic qarashlarning qiyosiy tahlili.
5. Turopova.P.Sh. Jizzax Adabiy Muhitining Taraqqiyot Tamoyillari:Filologiya Fanlari Bo'yicha Falsafa Doktori(PHD)Dissertatsiyasi - Jizzax.,2021. – 132B.
6. <https://m.ok.ru>
7. <https://daryo.uz>